

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-51409-4.02**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**IQTISODIY PEDAGOGIKA  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar  
tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi  
5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Primov M.,  
k.o'q. Avalova G.

**Taqrizchilar:** prof. Miroqilov T.,  
prof. Quronov M.

Dasturda asosiy e'tibor "Iqtisodiy pedagogika" kursidagi maqsad va vazifalar, Islom Karimov asarlarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya, iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning rivojlanish tarixi, iqtisodiy xulq-atvor, iqtisodiy xulq-atvorning psixologik jihatlari, iqtisodchi pedagoglarning kasbiy-axloqiy sifatlari, iqtisodiy ta'lim-tarbiyada etnopedagogik omillar masalalariga qaratilgan.

В программе основное внимание уделено проблемам цели и задачи курса "Экономическая педагогика", освещению вопросов экономического образования и воспитания в произведениях Ислама Каримова, истории развития экономического образования и воспитания, экономического поведения, профессионально-нравственного качества экономистов-педагогов, этнопедagogических факторов экономического образования и воспитания.

In programme the main attention is given to problems of purpose and tasks of the course "The economic education", to elucidation of matters economic education and upbringing in the works of Islam Karimov, histories of developing economics education and upbringing, to the economical behaviour, professional-moral quality of the economist-educational specialist, ethnopedagogical factors in economical education and upbringing.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanining va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

"Iqtisodiy pedagogika" kursi yangi tipdagi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bakalavrlar iqtisodiyot pedagogika, psixologiya sohalaridagi bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallagan bo'lishi talab etiladi.

"Iqtisodiy pedagogika" kursining maqsadi bakalavrlarga iqtisodiyot sohasidagi tayanch tushunchalarning pedagogik jarayon bilan bog'lanishi, iqtisodiy ta'lim-tarbiya tarixi, mazmuni, tamoyillari, iqtisodiy xulq-atvor, uning shakllari, iqtisodiy ta'lim-tarbiyada etnopedagogik omillar, ta'lim muassasasini boshqarish jihatlari to'g'risida har tomonlama bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir.

"Iqtisodiy pedagogika" kursini o'rganish iqtisodiyot sohasida muayyan mutaxassislik yo'nalishidagi fanlarni, pedagogika, psixologiya va gumanitar-ijtimoiy sohadagi fanlarni chuqur bilishni taqozo qiladi.

### **O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarga talablar**

"Iqtisodiy pedagogika" kursini o'rganuvchilar tanlagan mutaxassislik yo'nalishidagi fanlar, pedagogika va psixologiya sohasidagi fanlar bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Quyidagi tajribaga ega bo'lishi kerak:

- mashg'ulotlarda o'quv materiallarini o'zlashtirish rejasi va mashg'ulotning reja konspektlarini turli-xil shakllarda tuzish;
- zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida ta'limni, bilim olishni tashkil qilish va qo'llash;
- talabalar mustaqil ishlash va mustaqil ta'limni ilmiy-uslubiy tashkil qila olish.

### **Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar**

Iqtisodchi-bakalavrlar "Iqtisodiy pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonidagi seminar mashg'ulotlarni bahs munozara shaklida olib borish, mavzular bo'yicha test variantlarini tuzish, berilgan adabiyotlardan foydalangan holda amaliy mashg'ulot savollariga javob berish, referatlar yozish ko'zda tutiladi.

### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Namunaviy o'quv rejasida mazkur kursga 114 soat ajratilgan bo'lib, ularning 38 soati ma'ruza, 38 soati seminar mashg'ulotlaridan, 38 soati mustaqil ta'limdan iborat. Mazkur

kursni o'zlashtirish natijasida bakalavrlar "Iqtisodiy pedagogika" sohasida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

#### **Bakalavrlar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

"Iqtisodiy pedagogika" fanidan bakalavrlar bilimni nazorat qilish ikki marta JB, ikki marta OB, bir marta YaB o'tkaziladi. Yakuniy baholash yozma ish shaklida o'tkaziladi.

#### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash**

Darslarda "Iqtisodiy pedagogika" fani bo'yicha albomlar, kompyuter, proektor va slayd namunalaridan foydalaniladi.

#### **O'quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

"Kasb ta'limi" yo'nalishida "Iqtisodiy pedagogika" fani namunaviy o'quv rejasi bo'yicha 4-semestrda o'qitiladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **"Iqtisodiy pedagogika" kursining maqsadi va vazifalari**

Iqtisodchi-pedagoglar psixologiya, pedagogika va iqtisodiyot fanlaridan chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yangi tipdagi ikki yoqlama mutaxassislar sifatida.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida milliy ta'lim-tarbiya tizimi va rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlaridagi ijobiy yutuqlarga asoslanish.

*O'zbekiston uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining tarkibiy tuzilishi va islohot yo'nalishlari.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida iqtisodiy ta'lim tarbiyaning o'rni va maqsadlari. Iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish vazifalari.

### **Iqtisodiy pedagogika kursining predmeti va uni o'rganish usullari**

"Iqtisodiy pedagogika" fani iqtisodiyot va pedagogika fanlari sohalarining tutashuv nuqtasida vujudga kelgan fan sifatida.

"Iqtisodiy pedagogika" ning asosiy tushunchalari. Iqtisodiy his-tuyg'ular. Ong reaksiyalari. Iqtisodiy xulq-atvor.

Iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish "Iqtisodiy pedagogika" fanining predmeti sifatida.

Iqtisodiyot va pedagogikaning tutashgan sohasidagi asosiy tushunchalar.

Cheklangan resurslar sharoitida tejamkorlik xislatlarini shakllantirish.

*Iqtisodiy voqealar, iqtisodiy hodisalar, iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy munosabatlar va ta'lim-tarbiya jarayonlari.*

Mulkka munosabat, taqsimot, ayriboshlash, iste'mol munosabatlari va kishilar xulq-atvori.

"Iqtisodiy pedagogika" fanini o'rganish usullari.

### **"Iqtisodiy pedagogika" fanidagi tayanch atamalar va ularning iqtisodiy xulq-atvorning shakllanishidagi o'rni**

Iqtisodiy xulq-atvorning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

Mulkka munosabat, taqsimot, ayriboshlash, iste'mol munosabatlari va kishilar xulq-atvori.

Iste'molchi tanlashiga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish va harajat, raqobatchilik va iqtisodiy xulq-atvor.

Davlat va bozor. Bozor va individ. Ish kuchining qiymati. Moslashuvchanlik. Inflyatsiya. Bandlik va ishsizlik. Tashabbuskorlik va boqimandalik.

Tijorat. Risk. Barqarorlik va foyda olish. Foyda va kapital. Tadbirkorlik.

*Qiyin sharoitlarda yashay olish va uni engib chiqish hamda yanada rivojlanish xislatlarini shakllantirish.*

### **Iqtisodiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Iqtisodiy pedagogikaning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqasi.

*Iqtisodiy pedagogika, psixologiya, pedagogika va iqtisodiy fanlarning o'zaro aloqasi.*

Iqtisodiy pedagogikaning iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.

### **Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning rivojlanish tarixi**

Xalq pedagogikasida iqtisodiy axloq, iqtisodiy tarbiya masalalari.

Xalq pedagogikasida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalari.

Zardushtiylik dinida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalari.

*Islom dinida iqtisodiy pedagogika masalalari.*

### **Iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning Markaziy Osiyo mutafakkirlarining, davlat arboblarning asarlarida va faoliyatlarida ifodalanishi**

Iqtisodiy g'oyalarning Yusuf Xos Hojib, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Markaziy Osiyo mutafakkirlari kabi asarlarida

ifodalanishi va ularning faoliyatlarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya g'oyalarining amalga oshirilishi.

*Sharq xalqlari allomalari ijodida ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan maxsus asarlar tendentsiyasining rivojlanishi. "Qobusnoma".*

### **Jadidlar harakatida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi**

Jadidlar harakatida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalarining umumiy ifoda etilishi.

*Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi.*

### **Islom Karimov asarlarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalari**

Islom Karimov barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarining o'zni haqida. Iqtisodiy islohotlar va yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish masalalari.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida va iqtisodiy bilimlar va xulq-atvor shakllari. Mulkdorlar sinfining shakllanishi va mulkdorlik tuyg'usini tarbiyalash.

*Aholining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini oshirish ko'nikmalarini qaror toptirish va boqimandalikni tugatish.*

Ishlab chiqarishda inson resurslarining salohiyatini oshirish.

Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish.

Erkinlashtirilgan bozor iqtisodiyotiga xos yangicha iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish va qaror toptirish.

### **Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonlarini isloh qilishda Islom Karimov asarlaridagi g'oya va kontsepsiyalarning ahamiyati**

Taraqqiyotning "o'zbek modeli" va iqtisodiy tarbiya sohasidagi islohotlar.

"O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida ishlab chiqilgan iqtisodiy tamoyillar va islohot jarayonlari.

Islom Karimov O'zbekistondagi inson resurslarining iqtisodiy salohiyatlari va milliy xususiyatlari to'g'risida.

Iqtisodiyotimizdagi ustuvor yo'nalishlar va inson resurslari.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 y. 29 avgust) qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da demokratik va iqtisodiy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash tizimini keng ko'lamda tubdan isloh qilish maqsadining qo'yilishi va uning mohiyati.

*Yangi tipdagi o'quv muassasalari va Akademiyalarning ochilishi.*

O'qituvchi va tarbiyachilarga zamonaviy bilim berish masalalari.

Oliy, o'rtta maxsus, kasb-hunar, o'rtta maktab tizimidagi islohotlarning bosqichlari.

Ta'limning yangi modelini bosh vazifasi-mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsni shakllantirish vazifasining qo'yilishi.

### **Iqtisodiy xulq-atvorning psixologik asoslari**

Analitik usul yoki individualizm yo'li. Bixeviorizm gipotezalari.

Iqtisodiyotda foydalilikning eng so'nggi chegarasining ochilishi. Marjinalizm rivojlanishida Alfred Marshall, Minger-Fridrix Vizer, Evgeniy Byom-Baverkning qo'shgan hissalarini. A. Marshall g'oyalari-iqtisodiy nazariyalar g'oyalari dengizida yo'l ko'rsatuvchi mayoq sifatida. *Fridrix Fon Vizer iqtisodiyotda sub'ektiv-psixologik nazariyaning moslashuvchan varianti sifatida e'tirof etilishi.*

### **Iqtisodiy xulq-atvor va iqtisodiy qadriyatlar**

Qadriyatlarning aksiologiya va iqtisodiyot sohalaridagi talqinlari o'rtasidagi tafovutlar.

*Aksiologiyada qadriyatlar tushunchasining mohiyati va ishlab chiqishi.*

Iqtisodiyotda qadr-qimmat tushunchasi.

### **Makroiqtisodiyotda iqtisodiy xulq-atvor masalalari**

Oqilona kutishning makroiqtisodiy nazariyasi. Oqilona kutishga axborotlar oqimining ta'siri.

Dj. Keynsning asosiy psixologik qonuni. *Iste'mol, jamg'arish, investitsiyalarning neoklassik talqini.*

### **Iqtisodiy xulq-atvor va soliqlar**

Soliqlarning tarkibi. Soliq to'lovchilarning xulq-atvori. Soliqlarga tortishning eng yuqori stavkalari. Soliqlar va iste'mol talabi. *Jamg'arish ishlanishi.*

Soliqqa tortish tizimidagi iqtisodiy-psixologik tadqiqotlar.

Soliq islohotlarining tadbirkorlar tomonidan baholanishi (Daniya misolida).

Soliq islohotlarining chet el tajribasi.

### **Iqtisodiy pedagogikada etnopedagogik va diniy omillar**

Etnopedagogik omillarning iqtisodiy ta'lim-tarbiyadagi o'rni.

Maks Veber tasnifi bo'yicha inson faoliyatining tiplari: birinchisi-maqсадga muvofiq faoliyat, maqsadga erishish uchun mavjud vositalardan foydalanishni taqozo qilish; ikkinchisi -oqilona faoliyat, qadriyatlar nuqtai-nazaridan oqilona faoliyat; uchinchisi-hissiy faoliyat, his-tuyg'ulardan kelib chiqadigan faoliyat turi; to'rtinchisi-an'analar va odatlarni takrorlovchi faoliyat tipi.

*Iqtisodiy xulq-atvorda mentalitetining milliy xarakter va an'analarning o'rni.*

Milliy xarakterdagi etnopsixologik farqlar.

O'zbek millatining iqtisodiy xulq-atvoridagi o'ziga xosliklar.

O'zbeklarda oqilonalikning hissiy ta'sirchanlikdan ustuvorligi. Buyuk ipak yo'lida savdo-sotiqning rivojlanganligi. O'rta Osiyo Uyg'onish davrida matematika, astronomiya, adabiyot, tibbiyot, fiqhx va diniy bilimlar sohasidagi ulkan yutuqlar. O'zbek xulq-atvorida ilmiy asarlarga izoh berishning rivojlanganligi.

O'zbeklardagi mehnatsevarlik, altruizm, vazminlik, chidamlilik, sabr-toqat.

O'zini farzandlar istiqboliga to'la bag'ishlash. Ongidagi inertlik, tashabbuskor sustligi, an'anaviylik, dunyoqarash miqyosidagi cheklanganlik.

### **Iqtisodchi-pedagoglarning kasbiy va axloqiy xislatlari**

"Ustoz-shogird" munosabatlari an'analari. "O'qituvchi-o'quvchi" hamkorlik tizimi sifatida.

Iqtisodchi-pedagog kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar.

O'z kasbiga hurmat. Predmetni chuqur bilish. Pedagogika va psixologiya fanlarini chuqur egallash. O'quv-tarbiyaviy ishlar usulikasining zamonaviy usullarini o'zlashtirish. Fan, madaniyat, ma'naviyat masalalaridan keng bilimlarga ega bo'lish. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini chuqur egallash.

*Iqtisodchi-pedagoglarning axloqiy fazilatlarini.*

Fe'l-atvorida, kiyinishida, oilada, ish joyida, kishilar bilan muomalada yuksak saviyada madaniyatli bo'lish. Ro'zg'or yuritish, jamoat joylarida o'zini tutish, nutq madaniyatida namuna bo'lish.

### **Iqtisodiy ta'lim jarayonining usulologik-nazariy asoslari**

Milliy an'alar va qadriyatlarimizning ta'lim jarayonidagi usulologik ahamiyati.

Ta'lim jarayonida dinamika va sinergetika, ekzistentsializm va germenektika usullari.

Islom Karimovning ta'lim tizimini isloh qilishdagi kontseptual tamoyillari.

*Didaktika-ta'lim nazariyasi sifatida. Didaktik tamoyillar.*

### **Ta'lim jarayonining tashkiliy shakllari**

Iqtisodiy ta'limning nemischa-ruscha tizimi. Iqtisodiy ta'limning inglizcha-amerikacha tizimi. Iqtisodiy ta'limning yapon tizimi.

Iqtisodiy ta'limning o'zbek tizimi.

Iqtisodiy ta'limda ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar. Kurs ishi. Amaliyot. *Diplom ishlari.*



## **Ta'lim tizimining rivojlantirish istiqbollari**

Shaxsni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish sifatida. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi. Ta'lim mazmuni tizimidagi asosiy tamoyillar. Ta'lim mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'lagan holda rivojlantirish tamoyili.

*Yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash tamoyili.* Fanlararo majmuaviy aloqalar tamoyili. Kasbga yo'naltirish. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalash tamoyili.

Erkinlashtirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ta'lim tizimini takomillashtirish tamoyillari. Fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish, ikkinchi darajali va ortiqcha materiallardan qutilish, o'rganilayotgan fanlar ro'yxati va materiallar hajmining o'quvchilar yoshlarni o'zlashtira olishi qulay bo'lgan hajmini belgilash, o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalar va etakchi g'oyalarni juda aniq bayon qilish, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy qilish tamoyillari.

O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimining tarkibi. Ta'lim tizimida o'quv-dasturiy hujjatlar.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish. "Pedagogik hamkorlik"ka asoslangan yangi munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

### **Iqtisodiy ta'limda talabalar bilimni reyting usulida nazorat qilish shakllarini takomillashtirish**

Reyting nazoratining mohiyati.

Reyting nazoratining bilimlarni tashhis qilish funktsiyalari: Bilim olishga ishtiyoqni o'stirish, o'quvchilarning shaxsiy xislatlarini rivojlantirish, tarbiyaviy va baholash funktsiyalari.

Reyting tizimida test shaklida nazorat qilish. Shaxsiy xususiyatlar, intellektual va professional qobiliyatlarni tashhis qilishga mo'ljallangan testlar. Egallangan nazariy bilimlar, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish testlari. Testlarning gomogenlik darajasi. Test shakllari.

*Individual nazorat. Guruhdagi nazorat.*

### **Iqtisodiy ta'lim muassasalarini boshqarish**

Ta'lim muassasasining asosiy maqsadi-erkinlashtirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ishlay oladigan malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Ta'lim muassasasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.

Ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari. Demokratik tamoyil. Siyosiy rahbarlik, xo'jalikni tadbirkorlik bilan yuritish, ilmiylik, kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyillari.

*Boshqarish jarayoni.* G'oya, istiqbollarni belgilash, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, ishlab chiqish, o'zgartirishlar kiritish, nazorat qilish.

### **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TAXMINIY MAVZULARI**

Iqtisodiyot va pedagogika: tutash nuqtalarda yangi sohaning vujudga kelishi.\*

Iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish - ta'lim-tarbiya maqsadlaridan biri sifatida.\*

Iqtisodiyot sohasidagi tayanch tushunchalar va iqtisodiy ta'lim-tarbiya.\*

Iqtisodiy pedagogika va gumanitar-iqtisodiy fanlar.\*

O'rta Osiyo diniy ta'limotlarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalari.\*

IX-XII asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalari.\*

XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga doir qarashlar.\*

Mustaqillik yillarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya muammolari.\*

Iqtisodiy xulq-atvorning psixologik negizlari.\*

Iqtisodiy qadriyatlar.\*

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy xulq-atvor.\*

Soliq to'lovchilar xulq-atvori.\*

Etnopedagogik omillar.\*

"Ustoz-shogird", "o'qituvchi-talaba" tizimi.\*

Usulologiya ta'lim jarayonining asosi.\*

Iqtisodiy ta'lim tizimlari va shakllari.\*

Iqtisodiy ta'lim tizimini takomillashtirish.\*

Ta'limni nazorat qilish shakllari.\*

Ta'lim muassasalarini boshqarish.\*

### **4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR**

Ko'rgazma-namoyish materiallar ro'yxati:

- "Iqtisodiy pedagogika" fanining ilm-fan va amaliyot bilan bog'liqligini namoyon qiluvchi sxematik plakatlar;
- "Iqtisodiy pedagogika" fanining ilmiy tadqiqot usullari aks ettirilgan plakatlar;
- Ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi tamoyillarni aks ettiruvchi ko'rgazmali plakatlar.

O'quv filmlari ro'yxati (internetdan olinadi).

Didaktik materiallar ro'yxati.

Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

## 5. O'ZLASH TIRISHNI NAZORAT QILISH

### Nazorat turlari bo'yicha:

*joriy baholash uchun:*

- seminar mashg'ulotlari savollariga yozma javoblar tayyorlash;
- og'zaki bahs-munozaralarda qatnashish;
- test variantlariga javoblar berish;
- referatlar yozish.

*oraliq baholash uchun:*

- ma'ruza darslariga qatnashish;
- ma'ruzalar mazmunini yozib borish;
- ma'ruza darslarida savol-javoblar bilan faol qatnashish.

*yakuniy baholash uchun:*

kafedrada tasdiqlangan fan varianti savollariga 1200 so'z miqdoridagi "yozma ish" ni bajarish yoki test savollari, variant savollariga og'zaki javob berish.

## 6. ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: O'zbekiston, 2001.

11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I. A. Hayotimizning taraqqiyotimizning huquqiy asosi. Xalq so'zi. 2002 yil 6 dekabr.
13. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1997.
14. Bunkina M i dr. Ekonomika i psixologiya. Na perekryostke nauk.-M.: Delo i servis, 1998.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000.
16. Xo'jaev N va boshq. Iqtisodiy pedagogika.-T.: TDIU, 2002.
17. Qodirov A. Ma'naviyatning iqtisodiy tamoyillari. -T.: Ma'naviyat, 1999.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Bepalko B. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii.-M.: Pedagogika, 1999.
2. Vsemirnaya deklaratsiya o visshem obrazovanii dlya XXI veka: podxodi i prakticheskie meri. –Parij, 1998.
3. Dayana Xalpern. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. Sankt-Peterburg, 2000.
4. Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Teligl. Proekt: Chtenie v pismo dlya razvitiya kriticheskogo mishleniya. Posobiya 1-7. Bishkek, 1998.
5. Pedagogika. (A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida) - T.: O'qituvchi, 1996.
6. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs.-M.: 1999.
7. Raven Djon-mladshiy. Pedagogicheskoe testirovanie: problemi, zablujdeniya, perspektivi. Per. s angl. - M.: 1999.
8. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii - M.: 1998.
9. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. Sankt Peterburg, 1996.
10. Slastenin V.A., L.S.Podmova, Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost. - M.: 1998.
11. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. –T.: Mehnat, 1997.
12. O'lmasov A. Amaliy iqtisodiyot.-T.: 1997.